

## MATEMATIKA FANINI O'RGATISHDAGI AYRIM TAHLILLAR

**Shobiddinova Dilnavoz Toshtemir qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*“Matematika va informatika” fakulteti*

*Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *O'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, tarbiyalash, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabat hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z vataniga va xalqiga sodiq o'quvchilarni shakllantirishimiz lozim.*

**Kalit so'zlar:** *Mukammal tizim, iqtisodiyot, fan, texnika, eksperimental tekshirish, kuzatish.*

**Annotation:** *To ensure regular knowledge of the students, raise high spiritual and moral qualities on students on the basis of integrating national and educational values, to develop the needs of learning, to cultivate, educate, profession, and to manage the national and educational values, o. We need to shape loyal to the homeland and the people.*

**Keywords:** *A perfect system, economics, science, technique, experimental inspection, monitoring.*

**Аннотация:** *Для обеспечения регулярных знаний студентов повышают высокие духовные и моральные качества на учащихся на основе интеграции национальных и образовательных ценностей, разработать потребности обучения, культивировать, обучать, профессию и управлять национальными и образовательными ценностями, о отказ нам нужно формировать лояльную родину и людей.*

**Ключевые слова:** *Идеальная система, экономика, наука, техника, экспериментальная проверка, мониторинг.*

Inson har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizimlarini yaratish, eskirgan taffakur va ijtimoiy xulq - atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellectual merosi va umumbashariy qadriyartlar asosida, zamonaviy

madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika, va texnologiyaning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir [1].

Matematikani to'g'ri tushuntirib, o'quvchi bilan ishlash uchun dialektik - material o'qishda matematik qoidalarga yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

o'quvchilarga hayotiy masalalar va hikoyalar bilan bog'lagan ma'qul. Tabiatdagi o'lchovlarning o'zgarishi. Umuman o'qituvchi qulay vaqtlarda matematik fikrlashni o'stirish maqsadida hayotiy

va mantiqiy masalalarga to'xtalishi kerak. Masalan: Ko'lda bir o'rdak oldida ikki o'rdak bor, bitta o'rdak orqasida ikki o'rdak bor, ikki o'rdak o'rtasida bitta o'rdak bor. Jami nechta o'rdak bor? Bunday bu kabi masalalar o'quvchilarga matematik fikrlash, fanida ko'p hollardagi yaratuvchanlik qobiliyatlarida va bir vaqtda ularning o'sishiga yordam beradi [2].

O'quvchilarga mustaqillikdan keyingi o'zgarishlarni bu ko'rinishda ko'rsatish juda muhim. Bu holda o'qituvchidan juda aniq sonlarni keltirish talab qilinadi, bu ortiqcha suhbatlashlar olib borishni oldini oladi. Shunisi e'tiborliki, sonlar haqidagi faktlar doim ishonarli bo'ladi. O'quvchilar matematika darslarida va to'garaklarda buyuk matematiklar hayoti va qilingan ishlari haqida gapirishimiz muhim ahamiyatga ega. Jamoa bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish matematikada juda muhim hollarda bir

ishni jamoaga to'g'ri taqsimlanishi, bir qiyin masalani bir kishi yecha olmasa ko'pchilik yordamida bu masala yechimini topish mumkin. Bu holda o'quvchi o'ziga berilgan masalaning bir qismini yechishga ma'suliyat bilan yondashadi. Ishni to'g'ri taqsimlanishi yuqori nazoratda ishlashga to'g'ri keladi.

Birinchi navbatda masalaning berilishini o'ylash, o'ziga aniqlashtirib olishi nimani topish kerak.

1) Yechish rejasini tuzish, berilganlarning barchasi yechimda ishtirok yetadimi yoki ortiqchami shuni aniqlash kerak.

2) Masalani qaysi yo'l bilan yechishni aniqlash. Masalani yechishdan oldin o'quvchi ketma – ketlikni tuzib keyin boshlash kerak.

O'quvchilar ikki holatni ham qarashlari kerak, bularni taqqoslashlari va orasidagi bog'lanishlarni tushunishlari lozim. Daftarni tutishiga e'tibor berishi kerak. O'quvchi daftardan tartibli va to'g'ri foydalanishi, yozuvlar shakliga qa'ttiy amal qilishi, formulalarni ramkaga olishi va yechim oxirida tagiga chizishi kerak. Hisoblashlar yoziladigan qoralamalar beparvolikni birinchi ko'rinishi hisoblanadi. O'quvchi qaysi qanday degan savollarni ifodalaydi, hisoblarni o'chiradi, tartibsiz yozadi va oxiri o'zi nima yozganini tushunmay qoladi. Berilgan ishi qanday munosabatda ekanini qoralama ifodalaydi. Qoralamada ishlash sistemasini yoqlamaymiz lekin qoralama va o'chirgichlar bir xil tartibli ishlatilishi kerak [4-5]. Barcha hisoblashlarni quyidagi tartibda yozishni taklif etamiz. Daftarni sahifasini ikkiga bo'lamiz bir tarafiga barcha oraliq yozuvlarni va tugashini, ikkinchi tarafiga hisoblashlarni yozamiz. Katta hisoblashlarni esa quyidagicha yozsak bo'ladi: asosiy hisoblarni o'nga oraliq hisoblarni chapga keltiramiz. Eslatib o'tamiz, agar qaysi bir hisoblash noto'g'ri keltirilgan bo'lsa, o'quvchi uni tashlab yana qaytadan uni bajaradi, bo'yash mumkin emas. O'quvchi bilishi kerak tashlab ketilganiga u ayibdor emas. Beparvoligi uchun bahosi pasayadi o'quvchidan asosan uyga berilgan chizmalarni talab qilish kerak.

Matematikani o'qitish amaliy xarakterga ega va mehnat ta'limi, rasm, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya darslari bilan o'zaro bog'liq bo'lishiga qaramay, aqlan zaif

Alohida holatlarni eksperimental tekshirish, kuzatish, bosqichma-bosqich umumlashtirish aqli zaif o'quvchilar uchun tushunarli bo'lib chiqadi. Ta'limning bu usuli sizga matematikani o'qitishni hayot bilan yangi bilimlarni ilgari olingan bilimlar bilan bog'lashga imkon beradi va ularni ongli ravishda o'zlashtirish shartlarini ham maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvining maqbul variantini ham beradi. Inklyuziv (Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak) ta'limda bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundaki, intellektual qobiliyati cheklangan o'quvchi normal rivojlanayotgan muhitda bo'ladi. Shunga

ko'ra, o'qituvchining oldiga ikkita vazifa qo'yiladi: dars materialini odatdagi rivojlanayotgan o'quvchilarga va imkoniyati cheklangan o'quvchiga, uning moslashtirilgan dasturiga muvofiq etkazish.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. N.K.Razokova va b. Matematika fanlarini turli toifadagi o'quvchilarga o'rgatish. Andijon 2020.

2. National Program of Personnel Training of the Republic of Uzbekistan / Harmoniously developed generation is the basis of development of Uzbekistan. - T.: "O'zbekiston", 1997.

3. M.Tajiyev, K.Mamadaliyev "Designing the process of teaching mathematics" - // textbook. - T.: "Science and technology" 2014.

4. Онарқулов, К., & Рахматов, Ф. НАМЛИКНИ КАМАЙТИРИШДА АЙРИМ УСУЛЛАР. ФЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ФРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 293.

5. Rahmonberdievich, R. G. (2016). Installation of the IR dryer of raw cotton. European science review, (5-6), 185-186maktab o'quvchilari mavjud nazariy tushunchalar majmuasini o'zlashtirishlari shart. O'lchovda ipning qalinligi ahamiyatsiz ekanligi inson tarbiyasida to'g'ridan - to'g'ri ko'rinadi.